

**G'arb va Sharqni bog'lagan yo'l**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Jo'raqulova Mukambar Tursunmurod qizi*

*[mukambarjurakulova@dtpi.uz](mailto:mukambarjurakulova@dtpi.uz)*

*Tel: +99895120809;*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Fayziyev Abdulazizbek Ravshan o'g'li*

*[fabdulazizbek@gmail.com](mailto:fabdulazizbek@gmail.com)*

*Tel: +998919074240;*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Xursanova Farangiz Ulug'bek qizi*

*[farangizzursanova80@gmail.com](mailto:farangizzursanova80@gmail.com)*

*Tel: +998947482949;*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrgacha G'arb va Sharqni bog'lagan asosiy savdo yo'li Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotga tasiri va hozirgi zamonaviy davlatlarining rivojlanishidagi ahamiyatiga oid ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar :*" Buyuk ipak yo'li", "Buyuk meridional yo'l ", Ferdinand Paul Vilgelim Rixtgozen, Chjan Syan, Xitoy, YuNEKSO, ipak, Labnor ko'li, Buxoro, Samarqand.

*Аннотация:* В статье представлена информация о возникновении Великого Шелкового пути – главного торгового маршрута, соединившего Запад и Восток со II века до нашей эры по XVI век нашей эры, его влиянии на экономическую, политическую, культурную жизнь и его значении. в развитии современных государств.

*Ключевые слова:* Великий шелковый путь», «Великий Южный путь», Фердинанд Пауль Вильгельм Рихтгофен, Чжан Сян, Китай, ЮНЕСКО, шелк, озеро Лабнор, Бухара, Самарканда.

*Abstract:* This article provides information on the emergence of the Great

*Silk Road, the main trade route that connected the West and the East from the 2nd century BC to the 16th century AD, its impact on economic, political, cultural life, and its importance in the development of modern states. .*

**Key words:***The Great Silk Road", "The Great Southern Road", Ferdinand Paul Wilhelm Richthofen, Zhang Xiang, China, UNESCO, silk, Lake Labnor, Bukhara, Samarkand.*

Buyuk ipak yo'lining tarixi hozirgi davrda iqtisodiy hayot asosiy o'rin egallagan zamonda ko'plab tarixchilar tomonidan o'rganilgan masala hisoblanib biz shu manbalardan olingan ma'lumotlardan shuni anglaymizki, Buyuk ipak yo'li yoki „Buyuk meridional yo'l" miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrgacha mavjud bo'lgan.

„Xitoy bilan G'arb o'rtasidagi ipak yo'li va iqtisodiy- madaniy aloqalar tarixida saklar, xunlar, sug'diylar, turklar, va uyg'urlar ingliz qo'shgan hissasi nihoyatda katta bo'lgan. Saklar Yevroosiyo shimoliy savdo yo'lini- yaylovlar o'tkan ipak yo'lini ilk bora ochgan xalq hisoblansa sug'diylar miloddan avvalgi V asrlardan boshlab to milodiy X asrgacha bo'lgan 1500 yillik davr davomida ipak yo'li orqali amalga oshirilgan aloqalarni rivojlantirishda g'oyat ulkan hissa qo'shgan".[1]

Buyuk ipak yo'lining ilk bor paydo bo'lishi Xitoy elchisi Chjan Syanning miloddan avvalgi 129-128- yillari Farg'onaga kelishi bilan bog'liq edi. Chjan Syanning asl maqsadi mintaqaning Baqtriya qismida hukmdor yuechjilar bilan xunlarga qarshi ittifoq tuzish bo'lib yo'l-yo'lakay Farg'onaga ham kirgan shu tariqa birinchi bor bu o'lka bilan tanishgan. Chjan Syan safarni tugatib Xitoyga qaytgach Xan sulolasining hukmdoriga o'z taassurotlari va ma'lumotlarini so'zlab beradi. Shu tariqa Farg'onaning Xitoy bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalarni ham qiziqish uyg'otmay qolmaydi. Chjan Syanning ilk bor Farg'onadan bo'lib qaytgandan so'ng bu yurtga uzoq Xitoydan birin-ketin savdo karvonlari qatnay boshlaydi. Tabiiy ravishda ular xitoylik hunarmandlar ishlagan nafis buyumlarni keltirib, ularni Farg'ona ajoyibotlari, masalan otlar, dehqonchilik mahsulotlariga ayirboshlashga harakat qilganlar . Chunonchi, Chjan Syanning uzum va beda

o'simligi haqida o'z hukmdoriga yetkazgan ma'lumotidan so'ng oliv farmonga ko'ra shu ikki o'simlik ko'chati va urug'i elchilar, savdogarlar orqali Xitoyga olib ketiladi va hosildor yerlarda parvarish qilina boshlanadi. Shu tariqa xitoyliklar uzum va bedani o'zлari uchun kashf etganlar. Bartold fikriga qaraganda, taxminan shu davrda Farg'ona orqali xitoyliklar paxtachilik bilan ham ilk bor tanishganlar. Bu yerda paxta va uning qadimgi Xitoy iyeroglidida avval pak qabilida ifodalanishi diqqatni tormay qolmaydi. Ammo paxtachilik bilan rasman shug'ullanishni xitoyliklar ancha keyin boshlaganlar. Umuman, olganda farg'onaliklar savdo-sotiq ishlarida mohir hisoblanganlar. Miloddan avvalgi I mingyillikning so'nggi asrlarda shakllana boshlagan shimoliy yo'nalishi xuddi shu Farg'ona orqali o'tgani bejiz emas. [2]

Chjan Syanning sayohat yo'nalishi Buyuk ipak yo'li shakllanishiga asos bo'ldi. Buyuk ipak yo'lining dastlabki ikkita - janubiy va shimoliy yo'nalishlari bo'lgan bo'lsa, milodiy era boshlariga kelib boshqa yo'nalishlar ham o'zlashtiriladi.

Janubiy tarmog'i ( Nandao) Yuyminguan ( yanguan) - Shanshan (Pishamshan)- Labnor ko'li(Tuzli ko'li)- Kunlun (Janubiy tog')ning shimoliy tizmalari- Shag' (Yorkent) - Vaxon yo'lagi-Badaxshon o'lkasi. Bu yerda yo'1 ikki tarmoqqa bo'linib: Katta yuechjilar yurti (Baqtriya) va Ansi ( Parfiya)ga hamda Hindistonga olib borgan Buyuk ipak yo'lining markaziy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva- Marg'ilon-Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Buxoroga kelgan markaziy tarmog'i ikki yo'nalishga bo'lingan. Bu tarmoqning janubiy yo'nalishi Buxoro- Qarshi- G'uzor- Kesh- Termiz orqali Balxga o'tgan va Hindikush tog' dovonlari orqali Hindistonga o'tib ketgan. Ikkinci yo'nalish Buxorodan Marv va Nishopur orqali o'tgan. Bu yerdan yo'1 Tehron-Qasvin-Hamadon- Bag'dod-Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rtayer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan.

Shimoliy tarmog'i (Beydao) harbiy Chesh hokimi qarorgohidan boshlanib,"Shimoliy tog'" - Tyanshanning sharqiy tizmalari yonbag'rlari bo'ylab Qashqadaryo oqimi yo'nalishida Qashqarga, Tyanshan tog'idagi dovon orqali

Davan(Farg'ona)ga , Qang'ga, Yansay va Ansiga (Yansiga) olib kelgan. Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi. [3]

Qadimgi karvon yo'li yaqin davrdan Buyuk ipak yo'li deb atala boshlangan. Shuning uchun ham uzoq o'tmishda bitilgan Xitoy manbalarida "Ipak yo'li " ("Siychou Chjilu") atamasi uchramaydi. Binobarin, nega mazkur yo'lni bunday nom bilan atash hammaga ma'qul bo'ldi va bu atama tezda jahon adabiyotiga singib ketdi, degan masala kishilarni befarq qoldirmaydi. [4] Keling shu haqida fikr yuritamiz. Buyuk ipak yo'li XIX asrning ikkinchi yarmida (1877-yil) nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelim Rixtgofen tomonidan dastlabki marta "Ipak yo'li " degan nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan " Buyuk ipak yo'li "deb e'tirof etildi. Ushbu yo'l bunga qadar "Buyuk meridional yo'l " deb atalgan, Buyuk ipak yo'li nomini olishiga sabab esa ipak maxsulotining ipak yo'lidagi bir necha mingyllik tarixga ega bo'lgan xalqaro savdoda tutgan o'rniga ko'ra belgilanadi.

Shu tariqa Xitoydan to O'rtayer dengizi qirg'oqlarigacha yetib borgan, ramziy ravishda Buyuk ipak yo'li nomi bilan atalgan. Bu xalqaro tranzit kommunikatsiya yo'li O'rta Osiyoning tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalari tarixida , aloqa- savdo yo'llari tizimi rivojida alohida muhim bosqichni tashkil etadi. Buyuk ipak yo'lizing asosiy yo'nalishlari O'zbekiston hududlaridan o'tib, qadimgi davr va o'rta asrlardagi ichki hamda tashqi iqtisodiy- madaniy aloqalar rivojida sivilizatsiyalar aro muloqotda katta o'rinni tutib kelgan. Mintaqaning iqtisodiy- madaniy aloqalari rivojida katta o'rinni tutgan bu aloqa savdo yo'llari davrlar o'tishi bilan kengayib, uning yangi-yangi tarmoqlari paydo bo'lgan. Tashqi aloqalar o'z navbatida ichki yo'llar tarmoqlarining kengayishiga va tegishli xizmat ko'rsatish tizimi rivojiga olib keldi. Bu jarayonlar Buyuk ipak yo'li mavjud bo'lgan davrlarda kengayib bordi.[5]

Hozirgi zamonaviy davrda YuNEKSO tomonidan "Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li " dasturining ishlab chiqilishi Yevroosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarining 2000- yilga qadar ilmiy madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi.

Respublikamiz hududlarida ham bir qancha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy madaniy obidalar o'rganildi , qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi. Moddiy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Juda ko'pchilik tadqiqotchilar ishtirok etgan " Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li" dasturining asosiy vazifasi Sharq va G'arb o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo'lни xalqlarning birodarlik o'zaro hamkorlik va samimiyl muloqot yo'liga aylantirshdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o'rin tutgan. O'inka xalqlari bu tufayli G'arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo'jalik ixtiolaridan keng bahramand bo'lganlar. Bir so'z bilan aytganda Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb xalqlari hayotda muhim va tarixiy o'rin tutgan.

### **Foydalaniman adabiyotlar**

1. Vang Chjenya, Guan Lyan Ji va boshqalar.-"Ipak yo'lidagi savdo tarixi".
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi- "SHARQ" NASHIRYOTI - MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT- 2001. 55-56- betlar;
3. Anatoliy Sagdullayev. O'zbekiston tarixi 1-qism. TOSHKENT "VNESHINVESTPROM" - 2019.576-bet;
- 4.Ablat Xo'jayev. Buyuk ipak yo'li. "O'zbekiston milliy enskilopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2007. 85-bet;
- 5..Anatoliy Sagdullayev. O'zbekiston tarixi 1-qism. TOSHKENT "VNESHINVESTPROM" - 2019.583-bet.